

## ***ANACANTHOTERMES TURKESTANICUS* TERMITINING QASHQADARYO VILOYATIDA TARQALISHI**

Ruziboyeva M.R., Qarshi davlat universiteti magistranti

Raxmatullayev A.Y., Qarshi davlat universiteti

*Kalit so'z:* termit, termit avlodlari.

**Kirish.** Dunyo miqyosida termittlar tomonidan turarjoylar, tarixiy inshootlar, ma'muriy binolar, sanoat qurilishlari, elektr kuchlanish stansiyalari, temir yo'l yog'och shpallari, telegraf simyog'och ustunlari va boshqa yog'och konstruksiyalarni jiddiy shikastlashini mutaxassislar qayd etishmoqda [4].

Ilmiy manba ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha termittarning 3000 ga yaqin turi olimlar tomonidan qayd qilingan bo'lib, O'zbekistonda ularning *Anacanthotermes* avlodiga mansub 2 turi *Anacanthotermes ahngerianus* va *Anacanthotermes turkestanicus* qayd etilgan [5]. Jumladan, Respublikamizning shimoliy hududlarida (Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyatida) *Anacanthotermes ahngerianus* turi uchratilsa, qolgan barcha viloyatlarda *Anacanthotermes turkestanicus* individ vakillari tarqalganligi aniqlangan [2].

Mazkur ishning maqasadi, Qashqadaryo viloyatining turli ekosistemali hududlarida termittlar tarqalishini aniqlash va tahlil qilish.

**Tadqiqot materiali va metodikasi.** Termittarning *Anacanthotermes* avlodiga mansub tur vakillarining tarkibi G.S Mirzaeva va boshqalarning molekulyar genetik tahlili asosida aniqlandi [3]. Ularning monitoringi va bioekologik xususiyatlari D.P.Jujikov metodlari bo'yicha amalga oshirildi [1]. Qashqadaryo viloyatida termittlar monitoringi yuzasidan ilmiy izlanishlar 14 tumandagi zararlangan aholi xonodonlari va davlat mussasalarida olib borildi. Har bir tumandan 5 ta qishloq va 5 ta davlat mussasalarining termittlar tomonidan zararlanishi o'rGANildi.

**Natija.** Olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida 320 aholi xonodonlarining bino va inshootlari, shuningdek 8 ta davlat mussasalarining termittlar tomonidan zararlanganligi aniqlandi. Jumladan, xonodonlar miqyosida 11,87% - Mirishkor, 10,62% - Kasbi, 10,31% - G'uzor, 9,68 - Ko'kdala, 8,75% - Koson, 8,43% - Qarshi, 7,81% - Nishon, Chiroqchi, Qamashi, 6,87% - Muborak, 4,68% - Dehqonobod, 2,18% - Yakkabog', 1,56% Shahrисabz va Kitob tumanlariga to'g'ri keldi. Davlat mussasalarida tarqalishi bo'yicha 37,5% - Qarshi, 25% - Muborak, 1,25% - dan Kasbi, Mirishkor, G'uzor tumanlariga taqsimlandi. Viloyatning boshqa tuman muassalarida termittlar zarari qayd etilmadi.

**Xulosa.** Termittarning Mirishkor, Kasbi, G'uzor, Ko'kdala, Qarshi, Koson, Nishon, Koson, Chiroqchi, Muborak hamda Qamashi tuman hududlarida keng tarqalishiga sabab, Turkiston termiti – *Anacanthotermes turkestanicus* tabiiy sharoitda cho'llardagi kam sho'rangan tuproqli, shuvoq-efemer va shuvoq-sho'rxok o'simliklari o'sadigan tekisliklarda tarqalgan bo'lib, inson tomonidan qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, yangi shahar, qishloq hamda boshqa inshootlarning barpo etilishi, ular uchun yashash makoniga aylangan. Yakkabog', Shahrисabz, Kitob, va Dehqonobod tumanlari hududida er osti suvlarining yuqori qatlamlarda bo'lishi, termittarning tarqalishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan har bir aholi xonodon binolari va muassalarining termittlar tomonidan keltirilgan zarari hisoblab chiqilsa, bu albatta juda katta iqtisodiy talofat ko'rsatgichga ega bo'ladi. Har yili bahor mavsumida (mart-aprel) termittlar uyasidan minglab erkak va urg'ochi qanotli individ vakillari uchib chiqib, juftlashish orqali yangi oila shakllanadi. Shu bois, ularni tarqalishini oldini olish va cheklash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Жужиков Д.П. Термиты СССР. Москва: Изд-во МГУ, 1979. 225 с.
2. Мадяров Ш.М., Хамраев А.Ш., Рахматуллаев А.Ю. и др. Разработка приманочной матрицы для Туркестанского термита из местных материалов // В мат. Международ. семинара: Термиты Центральной Азии. Хива, 2005. С. 125-132.